



**Yangiboyeva Shaydo Ravshan qizi**

*2009-yil 1-dekabrda*

*tug'ulgan. Ayni damda Xorzam viloyati Shovot tuman  
17- umumiy o'rta ta'lim maktabning 9-sinfida ta'lim  
olib kelmoqda. She'riyatga va maqolalarga bo'lgan  
ishtiyoqi juda kuchli. Xalqaro tanlo'vlarda ishtirok etib  
oliy o'rinlarni egallab kelmoqda.*

**BORIGA SHUKR QILAYLIK**

Qo'limizda boriga shukr qilmasdan qadrini bilmasdan ko'prog'ini xohlayveramiz. To'g'ri, ko'p bo'lsin, kam bo'lmasin. Aslida qo'limizdagilar eng qadrlisidir. Nafsdan,

bu-nafs. Doim hayolimiz o'zimizda bo'lmaganida qoladi. Lekin umrimiz sohib bo'lmaganlarimiz bilan chiroyli, biz esa xom sut emganligimizga borib, buning qadrini bilmaymiz. Asl boylik bir dunyo boyligi bo'lsa ham, shukrni bilmaganlarda emas, ega bo'lmaganiga doim shukrda bo'lganlar qo'lidadir.

Hozir esa o'zingizda bor bo'lgan hammasini ko'z oldingizga keltiring va o'zingizdan

so'rang:

Xo'sh, shular ham bo'lmaganida-chi ?

Eskilar to'g'ri aytishgan ekan:

„O'ziga qanoat qilmagan ko'piga erisha olmas”.

Sen oziga qanoat qil, ko'pi o'zi seni topadi. Hayotda shukr qilishimiz kerak bo'lgan

qancha-qancha narsa bor. Eng ko'p shukr qilishimiz kerak bo'lgani yana bir tongni qarshi olganimizdir.

Hayotdan to'yib ketdingmi? Kechqurun uxlab, qaytib tongni ko'rolmaganlar bor.

Foydalanayotgan telefo'ningni yoqtirmayapsanmi? Telefo'ni bo'lmaganlar bor. Yashayotgan uyingdan ko'ngling to'lmayaptimi ? Boshini suqadigan bir boshpanasi bo'lmaganlar bor. Yegan ovqatingning tuzi past bo'lgani senga yoqmadimi, to'g'rimi? Oramizda yeyishga ovqat topa olmay yurganlar bor. Ko'zlaringni ranggi yoqmay qoldimi? Atrofingda ko'zi ojizlar bor.

Sog'lig'ing qadrini bilmayapsanmi? Hayotda qolish uchun o'lim bilan kurashayotgan qancha inson bor.

Buvinning nasihatlar:

„Dardlar faqat mening boshimda, deb o'ylama, sendagi dardni hisoblaydiganlar bor”.

Inson doim baxt izlayveradi. Qo'lida shuncha narsasi bo'lsa ham, doim ko'prog'ini xoxlayveradi. Istagini oldiga kelmaguncha o'zini baxtli va xotirjam his qilolmaydi. Baxtni o'zidan izlagan va boridan mamnun bo'lib shukr qilgan insongina baxtni topadi.

Har narsani bilish shart emas. Boriga shukr qilsak va ularning qadrini bilsak, shuning o'zi yetarli.